NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

UDK: 821.112.2-31.09

ERIX MARIA REMARK EMIGRATSIYA ROMANLARIDA QOCHQINLIK TAJRIBASI VA IDENTITET INQIROZINING BADIIY TALQINI («YAQINIMGNI SEV», «ZAFAR ARKI» VA «LISSABON KECHASI» ROMANLARI MISOLIDA)

Mamashayeva Mastura Mamasoliyevna
Katta o‘qituvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-3799-4920
E-mail: mamashayevamastura@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Erix Maria Remarkning emigratsiya davri romanlarida qochqinlik tajribasi va u bilan bog‘liq identitet inqirozining badiiy talqini tadqiq etilgan. Tadqiqot materiali sifatida «Yaqiningni sev» (1941), «Zafar arki» (1945) va «Lissabon kechasi» (1962) romanlari olingan. Ishning maqsadi — ushbu asarlarda vatanidan mahrum bo‘lgan inson identitetining yemirilish va qayta tiklanish modelini aniqlash hamda uni ifodalovchi badiiy vositalarni tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va germenevtik metodlar, motivlar va xronotop tahlili, shuningdek, ekzil nazariyasi (exile studies) tushunchalari qo‘llanilgan. Natijada emigrant identitetining olti semantik belgisi ajratildi va identitet inqirozining uch bosqichli modeli — chegara, shahar va port — asoslandi. Har bir bosqichning xronotopi, hikoya sub’yekti va himoya mexanizmi tavsiflandi. Muallif Remark romanlarida pasport, viza va ism motivlari shaxsning huquqiy hamda ichki mavjudligini belgilovchi markaziy ramzga aylanganini ko‘rsatadi. Natijalar XX asr nemis adabiyoti, ekzil adabiyoti va badiiy tarjima masalalarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Erix Maria Remark, emigratsiya romani, qochqinlik, identitet, pasport motivi, ekzil adabiyoti, xronotop, nemis adabiyoti.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОПЫТА БЕЖЕНСТВА И КРИЗИСА ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭМИГРАНТСКИХ РОМАНАХ ЭРИХА МАРИИ РЕМАРКА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ «ВОЗЛЮБИ БЛИЖНЕГО СВОЕГО», «ТРИУМФАЛЬНАЯ АРКА» И «НОЧЬ В ЛИССАБОНЕ»)

Аннотация: *В статье исследуется художественная интерпретация бежейского опыта и связанного с ним кризиса идентичности в романах Эриха Марии Ремарка эмигрантского периода. Материалом исследования послужили романы «Возлюби ближнего своего» (1941), «Триумфальная арка» (1945) и «Ночь в Лиссабоне» (1962). Цель работы — выявить модель разрушения и восстановления идентичности человека, лишённого родины, и систематизировать художественные средства её выражения. Применены сравнительно-типологический и герменевтический методы, мотивный и хронотопический анализ, а также понятийный аппарат исследований изгнания (exile studies). В результате выделены шесть семантических признаков эмигрантской идентичности и обоснована трёхступенчатая модель кризиса идентичности: граница, город, порт. Для каждой ступени описаны хронотоп, субъект повествования и защитный механизм. Показано, что мотивы паспорта, визы и имени становятся у Ремарка центральным символом, определяющим правовое и внутреннее существование личности. Результаты могут быть использованы при изучении немецкой литературы XX века, литературы эмиграции и в практике художественного перевода.*

Ключевые слова: *Эрих Мария Ремарк, эмигрантский роман, бежейство, идентичность, мотив паспорта, литература изгнания, хронотоп, немецкая литература.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE REFUGEE EXPERIENCE AND THE CRISIS OF IDENTITY IN THE EMIGRATION NOVELS OF ERICH MARIA REMARQUE (A CASE STUDY OF FLOTSAM, ARCH OF TRIUMPH AND THE NIGHT IN LISBON)

Abstract: *The article examines the artistic interpretation of the refugee experience and the related crisis of identity in Erich Maria Remarque’s novels of the emigration period. The material of the study comprises Flotsam (Liebe deinen Nächsten, 1941), Arch of Triumph (1945) and The Night in Lisbon (1962). The aim is to identify the model by which the identity of a person deprived of a homeland is destroyed and restored, and to systematise the artistic means through which this process is expressed. Comparative-typological and hermeneutic methods, motif and chronotope analysis, and the conceptual apparatus of exile studies are applied. Six semantic features of emigrant identity are distinguished, and a three-stage model of the identity crisis — the border, the city and the port — is substantiated; for each stage the chronotope, narrative subject and defence mechanism are described. The author shows that the motifs of the passport, the visa and the name become in Remarque’s prose a central symbol defining both the legal and the inner existence of the individual. The findings may be used in the study of twentieth-century German literature, exile literature and literary translation.*

Keywords: *Erich Maria Remarque, emigration novel, refugee experience, identity, passport motif, exile literature, chronotope, German literature.*

1. Kirish

XX asrning birinchi yarmi Yevropa tarixida ommaviy majburiy ko‘chish asri sifatida qoldi. Totalitar tuzumlar o‘z fuqarolarining katta qismini siyosiy, irqiy yoki mafkuraviy belgilarga ko‘ra jamiyatdan chiqarib tashladi va ularni davlatsiz odamlarga aylantirdi. Shu tariqa adabiyotda yangi qahramon paydo bo‘ldi: urushdan emas, o‘z davlatidan qochgan, chegaradan chegaraga quvilib, faqat qog‘oz parchasi — pasport yoki yashash ruxsatnomasi orqali mavjudligini isbotlashga majbur bo‘lgan inson.

Erix Maria Remark (1898–1970) bu tajribani kitobiy emas, shaxsiy hayoti orqali bilgan yozuvchidir. 1933-yil may oyida uning kitoblari Germaniyada ommaviy ravishda yoqildi, yozuvchi Shveysariyadagi Porto-Ronkoga ko‘chib o‘tdi, 1938-yilda esa nemis fuqaroligidan mahrum etildi. 1939-yildan u AQShda yashadi. Natsistlar Remarkning o‘ziga yeta olmagach, 1943-yilda uning singlisi Elfrida Sholtsni qatl etdi. Shu sababli yozuvchining emigratsiya mavzusidagi romanlari tashqaridan kuzatilgan voqealar bayoni emas, balki ichdan yashab o‘tilgan tajribaning badiiy shaklidir.

Remarkning ilk uchligida markaziy muammo urush travmasi va «yo‘qolgan avlod» taqdiri bo‘lsa, 1930-yillar oxiridan boshlab yozuvchi diqqati boshqa, ammo unga ichki jihatdan yaqin muammoga ko‘chadi. Front askari tinch hayotda o‘z o‘rnini topa olmagan bo‘lsa, emigrant uchun esa bu o‘rin rasman, qonun yo‘li bilan tortib olinadi. Birinchi holatda inson jamiyatdan ruhan uzilgan, ikkinchisida esa jamiyat uni huquqiy jihatdan «yo‘q» deb e’lon qiladi. Bu ikki tajriba o‘rtasidagi davomiylik Remark ijodini yaxlit tizim sifatida o‘qish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, migratsiya, qochqinlik va fuqaroligi yo‘q shaxslar muammosi bugungi dunyoda ham keskinligini yo‘qotgani yo‘q, shu bois Remark romanlari yangi o‘quvchi avlodi uchun ham tarixiy hujjat emas, balki tirik matn sifatida qabul qilinmoqda. Ikkinchidan, so‘nggi o‘n yilliklarda shakllangan ekzil nazariyasi va identitet tadqiqotlari muhojirlik adabiyotini o‘qishning yangi metodologik vositalarini taklif etdi. Uchinchidan, o‘zbek adabiyotshunosligida Remark ijodi asosan «G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q» romani atrofida o‘rganilib, emigratsiya davri romanlari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Tadqiqotning maqsadi — Remarkning emigratsiya romanlarida qochqinlik tajribasi va identitet inqirozining badiiy talqin modelini aniqlash va uni ifodalovchi poetik vositalarni tizimlashtirish.

Maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi: 1) Remark romanlarida emigrant identiteti konseptining semantik belgilarini aniqlash; 2) uch romandagi ekzil xronotopining tipologiyasini ishlab chiqish; 3) hujjat, ism va makon motivlari orqali identitet inqirozini ifodalash vositalarini tasniflash; 4) uch roman doirasida identitet inqirozining rivojlanish modelini asoslash.

Ilmiy yangiligi shundaki, ishda Remarkning turli yillarda yozilgan uchta emigratsiya romani yagona badiiy syujetning ketma-ket bosqichlari sifatida o‘rganiladi va identitet tayanchining davlat bergan hujjatdan so‘zlab berilgan hayot hikoyasiga qarab siljishi yozuvchi poetikasining asosiy qonuniyati sifatida asoslanadi.

2. Adabiyotlar tahlili

Remarkning emigratsiya romanlari ilmiy adabiyotda uch yo‘nalishda o‘rganilgan: nemis ekzil adabiyoti tarixi doirasida, yozuvchi ijodiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlarda va qochqinlik hamda identitet haqidagi falsafiy-madaniyatshunoslik nazariyalari kontekstida.

2.1. Ekzil adabiyoti kontekstida

1933–1945-yillardagi nemis emigratsiyasi adabiyotini tizimli o‘rgangan A. Shtefan bu davr yozuvchilari uchun asosiy muammo nashr imkoniyati va o‘quvchidan ajralish bo‘lganini, ammo shunga qaramay aynan muhojirlikda nemis nasrining eng muhim asarlari yaratilganini ko‘rsatadi [14]. Bu tadqiqotlarda Remark ko‘pincha T. Mann, L. Foyxtvanger, A. Zegers kabi yozuvchilar bilan bir qatorda tilga olinadi, biroq uning romanlari mafkuraviy pozitsiyadan ko‘ra inson taqdiriga yo‘naltirilgani bilan ajralib turishi qayd etiladi. Remark emigratsiyani siyosiy kurash maydoni sifatida emas, balki kundalik omon qolish muammosi sifatida tasvirlaydi.

2.2. Remarkshunoslikdagi yondashuvlar

R.A. Firda Remark romanlarining mavzuviy tahlilida emigratsiya davri asarlarini yozuvchining urush haqidagi romanlari bilan bir xil motivlar — birodarlik, o‘lim yaqinligi, muvaqqat muhabbat — orqali bog‘laydi [6]. H. Vagener Remark uslubining tashqi soddaligi ortida murakkab kompozitsion hisob-kitob yashirinishini ta’kidlab, «Lissabon kechasi» romanidagi ramka hikoyasini yozuvchining eng puxta konstruksiyalaridan biri deb baholaydi [17]. B. Merdok esa Remark romanlarini yaxlit korpus sifatida ko‘rib, emigrant qahramonlar ham urushdan qaytgan askarlar kabi «hayot uchqunini» saqlab qolishga intilishini ko‘rsatadi [8].

T.F. Shnayder tahriri ostidagi to‘plam Remark ijodining jahon miqyosidagi retseptsiyasi va matnlar tarixiga oid muhim faktik materialni jamlagan [13]. V. fon Shternburgning biografik tadqiqoti yozuvchining emigratsiyadagi hayoti, fuqarolikdan mahrum etilishi va hujjatlar bilan bog‘liq shaxsiy tajribasi uning romanlariga qanday ko‘chganini yoritadi [15]. Rus adabiyotshunosligida D.V. Zatonskiy Remark nasrini XX asr Yevropa ongining tipik hujjati sifatida baholagan [2].

2.3. Qochqinlik va identitet nazariyalari

Remark romanlarini nazariy jihatdan o‘qishda bir qator ishlar muhim ahamiyatga ega. H. Arendt 1943-yilda yozilgan «Biz, qochqinlar» esseda muhojirning o‘z o‘tmishini yashirishga va yangi muhitga «moslashib» ketishga intilishini ichki parchalanish sifatida tasvirlaydi [4]. U keyinroq «huquqqa ega bo‘lish huquqi» tushunchasini ilgari surib, davlatsiz inson amalda barcha huquqlardan mahrum bo‘lishini asoslaydi [3]. E. Said muhojirlikni inson va uning ona

yurti o‘rtasidagi bitmas yara sifatida ta’riflaydi [12]. J. Torpi pasportning tarixini o‘rganib, XX asrda davlat shaxsni aynan hujjat orqali «tanib olish» va harakatini nazorat qilish monopoliyasini qo‘lga kiritganini ko‘rsatadi [16]. S. Xoll identitetni tayyor mohiyat emas, balki doimiy «bo‘lish» jarayoni sifatida talqin qiladi [7]. M. Oje mehmonxona, vokzal, chegara punkti kabi tarix va munosabatlardan xoli joylarni «nomakonlar» (non-lieux) deb ataydi [5]. Xronotop tahlili uchun M.M. Baxtinning vaqt va makon haqidagi ta’limoti, ayniqsa uning «ostona xronotopi» tushunchasi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

Tadqiqot bo‘shlig‘i. Mavjud ishlarda Remarkning emigratsiya romanlari ko‘pincha alohida-alohida, asosan «Zafar arki» misolida tahlil qilinadi; «Yaqiningni sev» va «Lissabon kechasi» romanlari esa kamroq e’tiborga olinadi. Pasport va ism motivlari tilga olinsa-da, ular identitet inqirozining tizimli ifoda vositasi sifatida o‘rganilmagan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa bu romanlarga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot deyarli uchramaydi. Mazkur maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiali. Tahlil uchun Remarkning uchta romani tanlandi: «Liebe deinen Nächsten» (1941), «Arc de Triomphe» (1945) va «Die Nacht von Lissabon» (1962). Matnlar nemis tilidagi nashrlar va rus tilidagi tarjimalar bilan qiyosan o‘rganildi [9; 10; 11]. Tanlov mezonlari: a) uchala romanda ham qahramon natsistlar Germaniyasidan qochgan, hujjatsiz yoki soxta hujjatli emigrant; b) voqealar bir tarixiy davrga — 1930-yillar o‘rtasidan 1942-yilgacha bo‘lgan oraliqqa to‘g‘ri keladi; c) romanlarning makon mantig‘i izchil: Markaziy Yevropa chegaralari — Parij — Lissabon.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

— qiyosiy-tipologik metod — uch romandagi qahramon, motiv va syujet tuzilishining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun;

— germenevtik metod — matn parchalarini yaqindan o‘qish (close reading) orqali ma’no qatlamlarini ochish uchun;

— motivlar tahlili — pasport, viza, ism, mehmonxona, kema, chegara kabi takrorlanuvchi birliklarning funksional yukini aniqlash uchun;

— xronotop tahlili — M.M. Baxtin konsepsiyasi asosida har bir romanning vaqt-makon modelini tavsiflash uchun [1];

— ekzil nazariyasi tushunchalari — H. Arendt, E. Said, S. Xoll va M. Oje ishlaridagi kategoriyalar asosida identitet o‘zgarishlarini izohlash uchun [4; 5; 7; 12].

Tadqiqot bosqichlari. Ish to‘rt bosqichda bajarildi: 1) romanlarni yaqindan o‘qish va hujjat, ism, makon bilan bog‘liq parchalarni ajratib olish; 2) materialni xronotop, hikoya sub’yekti va motiv bo‘yicha tasniflash; 3) natijalarni qiyosiy jadvallarga joylashtirish; 4) identitet inqirozining umumlashtirilgan modelini qurish.

Tadqiqotning chegaralari. Ish uchta roman bilan cheklangan. Emigrantlarning AQShdagi hayotiga bag‘ishlangan «Jannatdagi soyalar» (1971) romani va tugallanmagan «Va’da qilingan yer» asari tahlilga jalb etilmagan; ular modelni kengaytirish uchun istiqbolli material hisoblanadi.

4. Natijalar va tahlil

4.1. Emigrant identiteti konseptining semantik maydoni

Uch roman matnini qiyosiy o‘qish Remark ijodida emigrant identitetini belgilovchi olti asosiy semantik belgini ajratish imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. Remark emigratsiya romanlarida emigrant identiteti konseptining semantik maydoni (muallif tomonidan tuzilgan)

Birinchi belgi — mavjudlikning hujjatga bog‘lanishi. Remark qahramonlari uchun pasport oddiy qog‘oz emas, balki shaxsning o‘rnini bosuvchi narsadir. Hujjati yo‘q inson politsiya uchun mavjud emas, ammo qamoqxona va chegara uchun juda aniq mavjud. Bu paradoks «Yaqiningni sev» romanining butun syujetini harakatga keltiradi. Ikkinchi belgi — makonsizlik. Qahramonlar hech qayerda uzoq qola olmaydi: har bir shahar ular uchun vaqtinchalik boshpana, har bir xona — tranzit nuqta. Uchinchi belgi — kutishga aylangan vaqt. Emigrant hayoti viza, ruxsatnoma yoki kema chiptasini kutishdan iborat bo‘lib qoladi; kelajak reja sifatida emas, navbatdagi muddat sifatida mavjud.

To‘rtinchi belgi — ismning beqarorligi. Uchala romanda qahramon ismi yo almashtirilgan, yo yashiringan, yo boshqa odamdan meros olingan. «Zafar arki» qahramoni Ravik nomi ostida yashaydi, uning haqiqiy ismi esa roman davomida deyarli tilga olinmaydi. «Lissabon kechasi» qahramoni esa vafot etgan begona odamning pasporti bilan, uning ismini o‘z ismiday ko‘tarib yuradi. Beshinchi belgi — vatan obrazining ikkilanishi. Germaniya qahramonlar uchun bir vaqtning o‘zida bolalik va xotira makoni hamda ta’qib manbai bo‘lib qoladi. Oltinchi belgi — tasodifiy birodarlik. Emigrantlar o‘rtasida doimiy jamoa emas, balki uchrashuv va ajralishga qurilgan muvaqqat hamdardlik shakllanadi; Remark uchun bu munosabat ham front birodarligining davomi, ham uning zaiflashgan shaklidir.

Bu belgilar alohida olinganda boshqa muhojirlik asarlarida ham uchraydi. Biroq Remark romanlarida ularning barchasi bir qahramon taqdirida birlashadi va o‘zaro sabab-oqibat zanjirini hosil qiladi: hujjatning yo‘qligi makonsizlikni, makonsizlik kutishni, kutish esa ismni yashirishni taqozo etadi.

4.2. Ekzil xronotopining tipologiyasi

Har bir roman o‘ziga xos vaqt-makon modeliga ega bo‘lib, ular birgalikda emigrant yo‘lining badiiy xaritasini hosil qiladi. Xronotop tipologiyasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Remark emigratsiya romanlarida ekzil xronotopining tipologiyasi

Parametr	*«Yaqiningni sev»*	*«Zafar arki»*	*«Lissabon kechasi»*
Asosiy makon	*Chegara, o‘rmon yo‘llari, qamoqxona, politsiya bo‘limi*	*Parij, «Internatsional» mehmonxonasi, klinika, kafe*	*Lissabon porti, tungi bar va kafelar, xotiradagi Osnabryuk*
Makon tabiati	*Ochiq, ammo kesib o‘tib bo‘lmaydigan; ostona*	*Yopiq, yashirin; nomakon*	*Chekka, so‘nggi nuqta; dengizga ochilgan ostona*
Vaqt modeli	*Takrorlanuvchi siklik vaqt: quvilish — qaytish*	*To‘xtab qolgan vaqt; urush arafasi*	*Bir tun ichiga siqilgan vaqt va unga sig‘dirilgan yillar*
Hikoya sub’yekti	*Uchinchi shaxs; Lyudvig Kern va Yozef Shtayner*	*Uchinchi shaxs; Ravik*	*Ramka: birinchi shaxs hikoyachi va Shvars hikoyasi*
Hujjat holati	*Hujjatning to‘liq yo‘qligi*	*Hujjatsiz, ammo yashirin kasb bilan yashash*	*Soxta, o‘zga odamning pasporti*
Uslubiy dominant	*Epizodik tuzilma, hujjatli aniqlik*	*Dialog, lirik ironiya, ichki monolog*	*Ramka hikoyasi, retrospeksiya, iqrornoma ohangi*
Yakuniy nuqta	*Shtaynerning Germaniyaga qaytishi va halokati*	*Urush boshlanishi, qahramonning internirlanishi*	*Hikoyaning tugashi, pasport va chiptaning boshqa qo‘lga o‘tishi*

Jadvaldan ko‘rinadiki, uch romanda makon Markaziy Yevropadan G‘arbga, quruqlikdan dengiz bo‘yiga qarab siljiydi. Biroq bu harakat ozodlikka emas, so‘nggi chegaraga olib boradi: Lissabon porti emigrant uchun Yevropaning oxirgi nuqtasi, undan keyin esa noma’lum okean boshlanadi. Baxtin ta’riflagan ostona xronotopi bu yerda o‘zining eng keskin ko‘rinishini oladi: qahramon hal qiluvchi chegarada turadi, ammo uni kesib o‘tish huquqi boshqalarning qo‘lida [1].

«Zafar arki» romanidagi mehmonxona Oje ta’riflagan nomakonning badiiy namunasidir [5]. «Internatsional» mehmonxonasida yashovchilar bir-birini tanimaydi, xonalar egalari almashib turadi, devorlar hech kimning xotirasini saqlamaydi. Remark bu makonni «shaxsiy tarixsiz» hayotning ramzi sifatida tasvirlaydi: Ravik bu yerda bor, ammo hech qayerda ro‘yxatda yo‘q. Romanning yakunida urush boshlanadi va qahramon chet ellik sifatida internirlanadi; uni olib ketayotgan mashina qorong‘ilikka cho‘mgan Zafar arki yonidan o‘tadi. Shu tariqa sarlavha ramzi teskari ma’no kasb etadi — g‘alaba darvozasi mag‘lubiyat yo‘lining belgisiga aylanadi.

4.3. Identitet inqirozini ifodalovchi badiiy vositalar

Remark emigrant ruhiyatini kengaytirilgan psixologik tahlil orqali emas, balki tashqi, «narsaviy» belgilar orqali ifodalaydi. Yozuvchi uchun hujjat, ism, xona, kiyim kabi predmetlar ichki holatning ko‘rinadigan ekvivalentidir. Ushbu vositalarning matn darajalari bo‘yicha tasnifi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Identitet inqirozini ifodalovchi badiiy vositalarning tasnifi

Matn darajasi	*Vosita*	*Badiiy funksiyasi*
Predmet	*Pasport, viza, yashash ruxsatnomasi*	*Shaxsning huquqiy mavjudligi qog‘ozga ko‘chishi; inson va hujjat o‘rni almashinuvi*
Onomastik	*Soxta, yashirin yoki meros olingan ism*	*Shaxsiy tarixdan uzilish; «men»ning bir necha qatlamga bo‘linishi*
Makon	*Mehmonxona, chegara, kamera, port*	*Nomakon va ostona orqali beqarorlik va tranzit holatni ifodalash*
Vaqt	*Muddat, kutish, «bir tun» ramkasi*	*Kelajakning reja emas, navbatdagi tekshiruv sifatida mavjudligi*
Kasbiy	*Ravikning boshqa shifokor nomidan jarrohlik qilishi*	*Mahorat saqlanadi, ammo uning egasi «ko‘rinmas»; soya mavjudligi*
Intonatsion	*Ironiya, kinoyali dialog, qisqa replika*	*Dahshatni kundalik gap ohangida aytish orqali himoyalanish*
Kompozitsion	*Ramka hikoyasi, hikoyaning boshqa odamga topshirilishi*	*Identitetni hikoya orqali tiklash va guvohga meros qoldirish*

Jadvaldagi eng muhim qator — predmet darajasidir. «Yaqiningni sev» romanida emigrantlar o‘rtasidagi suhbatlar qayerda ruxsatnoma oson berilishi, qaysi chegarada qanchalik qattiq tekshirilishi, qamoq muddati qancha bo‘lishi haqida boradi. Bu «byurokratik» suhbatlarda ham qo‘rquv, ham umid, ham tajriba almashinuvi bor. Remark shu tarzda qahramonlarning his-tuyg‘ularini bevosita nomlamay, ularni ma’muriy tilning quruq faktlari orqali beradi. Natijada o‘quvchi inson taqdirining davlat idorasi stolida qanday hal qilinishini ko‘radi.

Kasbiy daraja ham alohida e’tiborga loyiq. Ravik — mohir jarroh, ammo hujjati yo‘qligi sababli u rasmiy ravishda shifokor emas: u kamroq malakali frantsuz hamkasblari nomidan operatsiya qiladi. Bemor uni ko‘rmaydi, uning ismini bilmaydi. Bu holat emigrant identitetining kalit metaforasi sifatida o‘qiladi: inson qobiliyati va bilimi saqlanib qolgan, ammo jamiyat uni egasi bilan birga tan olishdan bosh tortadi. Mahorat bor, muallif yo‘q.

«Lissabon kechasi» romanidagi pasport motivi esa butunlay boshqa qirraga ega. Qahramon Parijda vafot etgan avstriyalik emigrantdan pasport va u bilan birga Shvars ismini meros qilib oladi. Roman oxirida u bu pasportni o‘z hikoyasini tinglagan notanish odamga beradi. Shu tariqa hujjat qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, bir necha hayotni ketma-ket «ko‘taradi». Ism shaxsga emas, balki taqdirga, omon qolish imkoniyatiga aylanadi.

4.4. Identitet inqirozining uch bosqichli modeli

Tahlil natijalari uch romanni identitet inqirozining ketma-ket bosqichlari sifatida ko‘rish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Remark emigratsiya romanlarida identitet inqirozining uch bosqichli modeli (muallif tomonidan tuzilgan)

Birinchi bosqich — chegara. «Yaqiningni sev» romanida identitet faqat salbiy shaklda mavjud: qahramon kim ekanini emas, kim emasligini biladi. U fuqaro emas, qonuniy yashovchi emas, ishchi emas. Lyudvig Kern hayoti Avstriya, Chexoslovakiya, Shveysariya va Frantsiya chegaralari orasida quvilish va qaytishdan iborat bo‘lgan siklga aylanadi. Bu bosqichda himoya mexanizmi — emigrantlar birdamligi va tajribali Shtayner beradigan amaliy omon qolish saboqlaridir.

Shtaynerning o‘lim to‘shagidagi xotinini ko‘rish uchun Germaniyaga qaytishi va halok bo‘lishi hujjatsiz insonning yagona «o‘zi tanlagan» harakati hayotiga tushishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bosqich — shahar. «Zafar arki» romanida qahramon chegara oldida emas, katta shahar ichida yashaydi. Endi u quvilmaydi, balki yashirinadi. Identitet ikki qatlamga ajraladi: tashqi, ko‘rinmas «soya» va ichki, kasbiy hamda axloqiy «men». Ravik o‘z o‘tmishini — Gestapo qiynoqlari va yo‘qotilgan ayolini — yashirgan holda, kalvados, ironiya va muhabbat orqali muvozanatni saqlashga urinadi. Uning sobiq qiynoqchisi Haakeni uchratib, unga qasos olishi — yashirin hayotdan chiqishga, o‘z tarixini qaytarib olishga qilingan urinishdir. Biroq bu harakat ham uni qonuniy shaxsga aylantirmaydi: urush boshlanishi bilan u yana ro‘yxatdagi «chet ellik»ka aylanadi.

Uchinchi bosqich — port. «Lissabon kechasi» romanida identitet muammosi yangi yechim topadi. Qahramon endi davlat bergan hujjat bilan ham, yashirin «men» bilan ham himoyalana olmaydi; uning yagona tayanchi — so‘zlab berilgan hayot hikoyasi. Shvars bir tun davomida notanish hikoyachiga o‘z vataniga qaytishi, xotini Yelena bilan uchrashuvi va uni yo‘qotishini hikoya qilib beradi. Bu iqrornoma uning uchun ham xotirani saqlash, ham o‘zini qayta yaratish vositasidir. S. Xoll ta’rifidagi «jarayon sifatidagi identitet» bu yerda bevosita badiiy shaklga ega bo‘ladi [7]: inson o‘zi haqida hikoya qilib, boshqa odam xotirasida yashashni davom ettiradi.

Uch bosqichning qiyosiy tavsifi 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Identitet inqirozi bosqichlarining qiyosiy tavsifi

Mezon	*I bosqich — Chegara*	*II bosqich — Shahar*	*III bosqich — Port*
Asosiy tahdid	*Deportatsiya, qamoq*	*Fosh bo‘lish, ro‘yxatga tushish*	*Imkoniyatni boy berish, so‘nggi chegarada qolish*
Identitet shakli	*Salbiy: «kim emasman»*	*Ikkilangan: soya va yashirin «men»*	*Hikoyaviy: so‘zlab berilgan hayot*
Ism holati	*Haqiqiy ism, ammo hujjatsiz*	*Yashirin ism, soxta nom*	*Meros olingan begona ism*
Himoya mexanizmi	*Birdamlik, amaliy tajriba*	*Kasb, ironiya, muhabbat, qasos*	*Hikoya qilish, guvoh topish*
Insoniy aloqa	*Tasodifiy hamroh va ustoz*	*Muvaqqat muhabbat va do‘stlik*	*Bir tunlik tinglovchi*
Yakuniy natija	*Jismoniy halokat yoki yangi qochish*	*Internirlanish, tarixga yutilish*	*Hujjat va hikoyaning boshqaga o‘tishi*

Jadval shuni ko‘rsatadiki, uch roman davomida identitet tayanchi tashqaridan ichkariga qarab ko‘chadi. Birinchi bosqichda shaxs taqdiri butunlay davlat bergan yoki bermagan qog‘ozga bog‘liq. Ikkinchi bosqichda inson kasbiy va axloqiy «men»i orqali o‘zini saqlaydi, ammo bu «men» ijtimoiy ko‘rinishdan mahrum. Uchinchi bosqichda esa identitet hikoya shaklida mavjud bo‘lib, boshqa insonga topshirilishi mumkin bo‘lgan narsaga aylanadi. Shu ma’noda Remarkning so‘nggi emigratsiya romani pessimistik emas: davlat inson ismini tortib olishi mumkin, ammo uning tarixini so‘zlab berish imkoniyatini tortib ololmaydi.

4.5. Muhokama: urush travmasidan qochqinlik tajribasiga

Olingan natijalar Remark ijodining ichki uzviyligini yangicha ko‘rishga imkon beradi. Yozuvchining ilk romanlarida asosiy muammo — urushdan qaytgan avlodning jamiyatga sig‘masligi edi. Emigratsiya romanlarida esa bu muammo yangi darajaga ko‘tariladi: endi jamiyat insonni nafaqat tushunmaydi, balki uni rasman o‘z tarkibidan chiqarib tashlaydi. Front askari uchun «yo‘qolganlik» ruhiy holat bo‘lsa, emigrant uchun u huquqiy maqomdir. Shu bois Remarkning qochqin qahramonlari «yo‘qolgan avlod»ning keyingi, yanada og‘ir bosqichdagi vakillari sifatida qaralishi mumkin.

Ikki davr romanlari o‘rtasida yana bir parallel mavjud. Urush romanlarida qahramonlarni front birodarligi saqlab qolgan bo‘lsa, emigratsiya romanlarida uning o‘rnini tasodifiy, muvaqqat hamdardlik egallaydi. «Yaqiningni sev» sarlavhasidagi Injil chaqirig‘i shu ma’noda ironik ham, jiddiy ham o‘qiladi: davlatlar va qonunlar insonni rad etgan sharoitda faqat yaqin odamning yordami hayotni saqlab qoladi. Bu Arendt ta’riflagan holatga mos keladi: huquqiy himoyadan mahrum bo‘lgan inson uchun boshqalarning shaxsiy mehr-shafqati yagona boshpana bo‘lib qoladi [3].

Remark emigratsiya romanlarining tipologik o‘ziga xosligi ham shu yerda ko‘rinadi. Ko‘plab nemis ekzil yozuvchilari muhojirlikni siyosiy kurash yoki tarixiy falsafiy mushohada orqali tasvirlagan bo‘lsa, Remark uni kundalik hayot darajasida — pasport navbati, mehmonxona xonasi, chegara qo‘riqchisi bilan uchrashuv orqali ko‘rsatadi. Aynan shu «past», maishiy daraja uning romanlarini keng o‘quvchi uchun tushunarli va bugungi kun uchun ham dolzarb qiladi.

Natijalar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham ahamiyatlidir. XX asrda majburiy ko‘chish, surgun va vatandan ayrilish mavzulari o‘zbek adabiyotida ham turli shakllarda aks etgan. Remark romanlari asosida ishlab chiqilgan model bunday asarlarni qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, Remark romanlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda hujjat, ism va ma’muriy til bilan bog‘liq leksik qatlamni aniq qayta yaratish muhim vazifa bo‘lib qoladi, chunki aynan shu qatlam asarlarning asosiy ma’no yukini ko‘taradi.

5. Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Erix Maria Remarkning «Yaqiningni sev», «Zafar arki» va «Lissabon kechasi» romanlari turli yillarda yozilganiga qaramay, yagona badiiy tizimni — qochqinlik sharoitida identitet inqirozining uch bosqichli modelini tashkil etadi. Model chegara, shahar va port bosqichlaridan iborat bo‘lib, har bir bosqich o‘z xronotopi, hikoya sub’yekti va himoya mexanizmiga ega.

Ikkinchidan, Remark romanlarida emigrant identiteti olti semantik belgi orqali voqelanadi: mavjudlikning hujjatga bog‘lanishi, makonsizlik, kutishga aylangan vaqt, ismning beqarorligi, vatan obrazining ikkilanishi va tasodifiy birodarlik. Bu belgilar o‘zaro sabab-oqibat zanjirini hosil qiladi.

Uchinchidan, yozuvchi identitet inqirozini bevosita psixologik tahlil orqali emas, balki predmet (pasport, viza), onomastik (ism), makon (mehmonxona, chegara, port), kasbiy va kompozitsion darajalardagi vositalar orqali ifodalaydi. Pasport motivi bu tizimda markaziy ramz bo‘lib, inson va hujjat o‘rni almashinuvini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, uch roman davomida identitet tayanchi davlat bergan hujjatdan yashirin kasbiy «men»ga, undan esa so‘zlab berilgan hayot hikoyasiga qarab siljiydi. Bu siljish Remarkning so‘nggi emigratsiya romaniga stoik umid ohangini beradi: insonning tarixi hikoya orqali saqlanib, boshqa odamga meros bo‘lib o‘tishi mumkin.

Beshinchidan, Remarkning emigratsiya romanlari uning urush haqidagi asarlarining mantiqiy davomidir: «yo‘qolgan avlod»ning ruhiy begonalashuvi emigratsiya romanlarida huquqiy mahrumlikka aylanadi. Bu Remark ijodini yaxlit antropologik tizim sifatida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning istiqbollari. Taklif etilgan model Remarkning «Jannatdagi soyalar» romani materialida, shuningdek, A. Zegersning «Tranzit» va boshqa nemis ekzil yozuvchilarining asarlari bilan qiyosiy tahlilda sinovdan o‘tkazilishi mumkin. Alohida istiqbolli yo‘nalish — Remark emigratsiya romanlarining o‘zbek tiliga tarjimasida hujjat va ma’muriy til qatlamining qayta yaratilishini o‘rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. — М.: Художественная литература, 1975. — С. 234–407.

2. Затонский Д.В. Художественные ориентиры XX века. — М.: Советский писатель, 1988. — 416 с.

3. Arendt H. The Origins of Totalitarianism. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1951. — 477 p.

4. Arendt H. We Refugees // The Menorah Journal. — 1943. — Vol. 31, No. 1. — P. 69–77.

5. Augé M. Non-Places: Introduction to an Anthropology of Supermodernity. — London; New York: Verso, 1995. — 122 p.

6. Firda R.A. Erich Maria Remarque: A Thematic Analysis of His Novels. — New York: Peter Lang, 1988. — 268 p.

7. Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference / ed. J. Rutherford. — London: Lawrence & Wishart, 1990. — P. 222–237.

8. Murdoch B. The Novels of Erich Maria Remarque: Sparks of Life. — Rochester, NY: Camden House, 2006. — 256 p.

9. Remarque E.M. Arc de Triomphe. — Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1998.

10. Remarque E.M. Liebe deinen Nächsten. — Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1998.

11. Remarque E.M. Die Nacht von Lissabon. — Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1998.

12. Said E.W. Reflections on Exile and Other Essays. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2000. — 617 p.

13. Schneider T.F. (Hrsg.) Erich Maria Remarque: Leben, Werk und weltweite Wirkung. — Osnabrück: Rasch, 1998.

14. Stephan A. Die deutsche Exilliteratur 1933–1945: Eine Einführung. — München: C.H. Beck, 1979.

15. Sternburg W. von. «Als wäre alles das letzte Mal»: Erich Maria Remarque. Eine Biographie. — Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1998. — 496 S.

16. Torpey J. The Invention of the Passport: Surveillance, Citizenship and the State. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

17. Wagener H. Understanding Erich Maria Remarque. — Columbia: University of South Carolina Press, 1991. — 148 p.

References

1. Bakhtin M.M. Formy vremeni i khronotopa v romane [Forms of Time and of the Chronotope in the Novel]. In: Voprosy literatury i estetiki. Moscow, Khudozhestvennaya literatura Publ., 1975, pp. 234–407. (In Russian)

2. Zatonskiy D.V. Khudozhestvennye orientiry XX veka [Artistic Landmarks of the 20th Century]. Moscow, Sovetskiy pisatel Publ., 1988. 416 p. (In Russian)

3. Arendt H. The Origins of Totalitarianism. New York, Harcourt, Brace and Company, 1951. 477 p. (In English)

4. Arendt H. We Refugees. The Menorah Journal, 1943, vol. 31, no. 1, pp. 69–77. (In English)

5. Augé M. Non-Places: Introduction to an Anthropology of Supermodernity. London; New York, Verso, 1995. 122 p. (In English)

6. Firda R.A. Erich Maria Remarque: A Thematic Analysis of His Novels. New York, Peter Lang, 1988. 268 p. (In English)

7. Hall S. Cultural Identity and Diaspora. In: Rutherford J. (ed.) Identity: Community, Culture, Difference. London, Lawrence & Wishart, 1990, pp. 222–237. (In English)

8. Murdoch B. The Novels of Erich Maria Remarque: Sparks of Life. Rochester, NY, Camden House, 2006. 256 p. (In English)

9. Remarque E.M. Arc de Triomphe [Arch of Triumph]. Köln, Kiepenheuer & Witsch, 1998. (In German)
10. Remarque E.M. Liebe deinen Nächsten [Flotsam]. Köln, Kiepenheuer & Witsch, 1998. (In German)
11. Remarque E.M. Die Nacht von Lissabon [The Night in Lisbon]. Köln, Kiepenheuer & Witsch, 1998. (In German)
12. Said E.W. Reflections on Exile and Other Essays. Cambridge, MA, Harvard University Press, 2000. 617 p. (In English)
13. Schneider T.F. (ed.) Erich Maria Remarque: Leben, Werk und weltweite Wirkung [Erich Maria Remarque: Life, Work and Worldwide Impact]. Osnabrück, Rasch, 1998. (In German)
14. Stephan A. Die deutsche Exilliteratur 1933–1945: Eine Einführung [German Exile Literature 1933–1945: An Introduction]. Munich, C.H. Beck, 1979. (In German)
15. Sternburg W. von. «Als wäre alles das letzte Mal»: Erich Maria Remarque. Eine Biographie [«As If Everything Were the Last Time»: Erich Maria Remarque. A Biography]. Köln, Kiepenheuer & Witsch, 1998. 496 p. (In German)
16. Torpey J. The Invention of the Passport: Surveillance, Citizenship and the State. Cambridge, Cambridge University Press, 2000. (In English)
17. Wagener H. Understanding Erich Maria Remarque. Columbia, University of South Carolina Press, 1991. 148 p. (In English)